# INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Turg‘unboyev Sirojiddin Faxriddinovich,**
*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti doktoranti*
*sirojiddindok@gmail.com*
*Tel: +998 (95) 430-15-23*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada xalqaro baholash dasturlari (PISA va PIRLS), inklyuziv ta’lim hamda zamonaviy psixolingvistik yondashuvlar asosida o‘qish savodxonligining mazmuni va tarkibiy komponentlari yoritilgan. Shuningdek, o‘qish savodxonligini rivojlantirishning ilmiy asoslari inklyuziv ta’lim tamoyillari bilan o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilinib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida differensial yondashuv, Ta’limning universal dizayni (Universal Design for Learning), kompetensiyaviy ta’lim va dalillarga asoslangan o‘qitish texnologiyalarining integratsiyasi muhim metodologik asos sifatida yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, inklyuziv ta’lim, PISA, PIRLS, Ta’limning universal dizayni, kompetensiyaviy yondashuv, o‘qish metodikasi.*

## Теоретические основы формирования читательской грамотности у учащихся начальных классов в условиях инклюзивного образования

**Тургунбоев Сирожиддин Фахриддинович**,
*докторант Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони*

**Аннотация:** *В данной статье раскрываются содержание и структурные компоненты читательской грамотности на основе международных программ оценки (PISA и PIRLS), инклюзивного образования и современных психолингвистических подходов. Также анализируются научные основы развития читательской грамотности во взаимосвязи с принципами инклюзивного образования. Особое внимание уделяется интеграции дифференцированного подхода, Универсального дизайна обучения (Universal Design for Learning), компетентностного образования и технологий доказательного обучения как важной методологической основы процесса развития читательской грамотности учащихся начальных классов с учётом их индивидуальных образовательных потребностей.*

**Ключевые слова:** *инклюзивное образование, читательская грамотность, начальное образование, PISA, PIRLS, Универсальный дизайн обучения (Universal Design for Learning), компетентностный подход, методика обучения чтению.*

## Theoretical foundations of developing reading literacy among primary school students in inclusive education

**Turg‘unboyev Sirojiddin Faxriddinovich,**
*Doctoral student at the A. Avloni National Institute of Pedagogical Mastery*

**Abstract:** *This article examines the content and structural components of reading literacy based on*

*international assessment programmes (PISA and PIRLS), inclusive education, and contemporary psycholinguistic approaches. The scientific foundations of developing reading literacy are also analysed in relation to the principles of inclusive education. Particular attention is given to the integration of differentiated instruction, Universal Design for Learning (UDL), competency-based education, and evidence-based teaching technologies as important methodological foundations for developing reading literacy among primary school students while taking into account their individual educational needs.*

**Keywords:** *inclusive education, reading literacy, primary education, PISA, PIRLS, Universal Design for Learning, competency-based approach, reading instruction methodology.*

Ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari o‘quvchilarda nafaqat fanlarga oid bilimlarni, balki kundalik hayotda samarali faoliyat yuritish imkonini beruvchi funksional kompetensiyalarni shakllantirishni talab etmoqda. Mazkur kompetensiyalar orasida o‘qish savodxonligi alohida o‘rin tutadi. O‘qish savodxonligi yozma axborotni anglash, mazmunini tahliliy qayta ishlash, unga nisbatan baholovchi munosabat bildirish hamda olingan ma’lumotlarni turli kontekstlarda amaliy qo‘llay olishni nazarda tutadi. Mazkur ko‘nikmalar o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash va boshqa fanlarni o‘zlashtirish uchun muhim kompetensiyaviy asos vazifasini bajaradi [6, 10, 12].

So‘nggi yillarda xalqaro baholash dasturlarida olingan natijalar o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatmoqda. PISA yondashuvida o‘qish savodxonligi matnni shunchaki o‘qib tushunish bilan cheklanmay, undagi axborotni anglash, undan maqsadli foydalanish, mazmun yuzasidan tahliliy fikr yuritish va olingan ma’lumotlarni shaxsiy hamda ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirishga tatbiq etishni qamrab oladi [12]. PIRLS doirasida esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi badiiy hamda axborot matnlarining mazmunini tushunish, talqin qilish va o‘qilgan ma’lumotni mazmuniy jihatdan qayta ishlash ko‘nikmalari asosida aniqlanadi [10]. Mazkur yondashuvlar o‘qish savodxonligini faqat texnik o‘qish malakasi emas, balki funksional kompetensiya sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, xalqaro baholash dasturlarida munosib natijalarga erishish hamda inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda [1, 2, 3]. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarda o‘qis savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, xususan inklyuziv ta’lim muhitida mazkur jarayonning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalalari Gough va Tunmer, Scarborough, Perfetti kabi olimlarning psixolingvistik tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lsa, inklyuziv ta’limning nazariy asoslari Mitchell, Florian hamda Booth va Ainscowlarning ilmiy ishlanmalarida asoslangan [4, 5, 7, 9, 13]. Respublikamiz olimlari tomonidan ham boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish va inklyuziv ta’limni tashkil etish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda [8, 11]. Biroq mavjud tadqiqotlarda o‘qish savodxonligining zamonaviy psixolingvistik nazariyalari bilan inklyuziv ta’lim tamoyillarini yagona metodologik tizimda integratsiyalash masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'limda o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga doir nazariyalarni o'rganish hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlar integratsiyasiga tayangan konseptual modelni ishlab chiqishni taqozo etadi. tahliliy xarakterga ega ushbu jarayon ilmiy bilishning qiyosiy, tizimli, mantiqiy va sintezlash metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, ushbu metodlarni amaliyotga joriy etishning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, inklyuziv ta'lim, faoliyat nazariyasi hamda psixolingvistik o'qish nazariyalari tashkil etadi. Bundan tashqari, OECD tomonidan ishlab chiqilgan PISA baholash konsepsiyasi, IEAning PIRLS tadqiqotlari, UNESCOning inklyuziv ta'lim bo'yicha tavsiyalar inklyuziv ta'lim muhitida boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy metodologik asoslarini boyitadi [4, 5, 6, 10, 12, 15].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy yondashuvlarini inklyuziv ta'lim tamoyillari bilan integratsiyalashgan holda baholash maqsadida izlanishlarimiz davomida xorijiy va milliy ilmiy manbalar qiyosiy tahlilini amalga oshirdik.

O'qish savodxonligining zamonaviy talqini uni faqat matnni texnik jihatdan o'qiy olish darajasi bilan chegaralashga imkon bermaydi. Mazkur tushuncha yozma materialdan mazmuniy axborotni ajratib olish, uni tahlil va baholash, shuningdek, o'qilgan ma'lumotlarni muayyan vazifa hamda real hayotiy sharoitlarda qo'llash kabi o'zaro bog'liq ko'nikmalar majmuini anglatadi [6, 10, 12]. Demak, o'qish faoliyati murakkab kognitiv, lingvistik va kommunikativ jarayonlarning uyg'unlashuvi asosida amalga oshadi. Bu ko'nikmalarning boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq tizimli rivojlantirilishi o'quvchining keyingi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir.

Psixolingvistik tadqiqotlarda o'qish savodxonligining shakllanishi bir necha o'zaro bog'liq komponentlarning integratsiyasi bilan izohlanadi. Gough va Tunmer tomonidan ishlab chiqilgan *Simple View of Reading* modeliga ko'ra, matnni tushunish dekodlash va tilni tushunish jarayonlarining uyg'unligiga bog'liq [7]. Scarboroughning *Reading Rope* modeli esa fonologik ong, lug'at boyligi, grammatik bilimlar, og'zaki nutq va avtomatlashtirilgan so'z tanish ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi [14]. Perfetti tomonidan ilgari surilgan *Lexical Quality Hypothesis* nazariyasida esa matnni chuqur anglash o'quvchining leksik birliklarni fonologik, semantik va orfografik jihatdan qay darajada o'zlashtirgani bilan izohlanadi [13].

Mazkur nazariyalar bir-birini to'ldiradi va o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida til, tafakkur va kognitiv faoliyatning uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu bois boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etishda faqat texnik o'qishga emas, balki matnni mazmunan anglash, tanqidiy fikrlash va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirishga ham ustuvor e'tibor qaratilishi lozim [7, 12, 13, 14].

Inklyuziv ta'lim – barcha o'quvchilarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va ta'lim olishdagi o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvdir [4, 5, 6]. Bunday sharoitda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasining nafaqat universalligi, balki moslashuvchan bo'lishini ham talab etadi. Chunki inklyuziv sinflarda o'quvchilarning nutqiy rivojlanishi, kognitiv salohiyati, o'qish sur'ati va axborotni qabul qilish usullari bir-biridan farq qiladi.

Xalqaro tajribada ushbu muammoni hal etishda Ta'limning universal dizayni tamoyillari keng qo'llanilmoqda. Mazkur yondashuv o'quv materialini turli shakllarda taqdim etish, bilimni ifodalashning muqobil usullaridan foy-

dalanish hamda o‘quvchilarning motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash orqali barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi [5]. Bu tamoyillar inklyuziv sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning metodik asoslaridan biri sifatida qaraladi.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim metodologiyasiga doir ilmiy tadqiqotlar o‘qituvchining metodik kompetentligi, differensial yondashuv tamoyillariga amal qilishi va hamkorlikka asoslangan o‘qitish strategiyalaridan foydalanishi o‘quvchilarning, ayniqsa, o‘qish faoliyatidagi natijalarini yaxshilashda muhim omil ekanligini ko‘rsatmoqda [4, 5]. Demak, o‘qish savodxonligini rivojlantirish faqat o‘quv materiali mazmuniga emas, balki ta’lim muhitining moslashuvchanligi va pedagogning kasbiy tayyorgarligiga ham bog‘liq.

maqsadli-funksional – o‘quvchilarda funksional o‘qish savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadlarni belgilash;

mazmunli – o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan hamda differensial o‘quv materiallarini tanlash;

texnologik – strategik o‘qish, dialogik ta’lim, ta’limning universal dizayni hamda formatif baholash kabi samarali pedagogik usullardan foydalanish;

natijaviy – o‘quvchilarning matn mazmunini tushunish, axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va o‘qilgan ma’lumotlardan amaliy vaziyatlarda foydalanish kompetensiyalarini baholash.

Mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘qish savodxonligini

*1-jadval*

**Inklyuziv ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirishning zamonaviy nazariyalari va metodik ahamiyati**

| Nazariy yondashuvlar | Asosiy mazmuni | Inklyuziv ta’lim uchun metodik ahamiyati |
|---|---|---|
| PISA Reading Literacy | Matnni tushunish, tahlil qilish va undan foydalanish | Funksional o‘qish topshiriqlarini ishlab chiqish |
| PIRLS | Badiiy va axborot matnlarini anglash | Boshlang‘ich sinflarda matn bilan ishlash strategiyalarini takomillashtirish |
| Simple View of Reading | Dekodlash va tilni tushunish integratsiyasi | Nutqiy va o‘qish qiyinchiliklarini diagnostika qilish |
| Reading Rope | Til va o‘qish komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi | Kompleks rivojlantiruvchi metodikani ishlab chiqish |
| Universal Design for Learning | Moslashuvchan ta’lim dizayni | Turli ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun qulay o‘quv muhiti yaratish |

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini shakllantirish o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarga asoslangan integratsiyalashgan pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimning metodik jihatdan ustuvor komponentlari quyidagilardan iborat:

rivojlantirishning metodik yaxlitligini ta’minlaydi. Ushbu yondashuvning asosiy farqi shundaki, u psixolingvistik o‘qish nazariyalari bilan inklyuziv pedagogika tamoyillarini yagona metodologik tizimga birlashtiradi.

O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qish savodxonligini rivojlantirish masa-

lasi zamonaviy pedagogika va psixolingvistika fanlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda ushbu kompetensiya o'quvchilarning akademik muvaffaqiyati va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi[10, 12]. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu qarashlarni tasdiqlaydi va o'qish savodxonligini rivojlantirishni faqat o'qish texnikasini shakllantirish bilan cheklash mumkin emasligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadi-ki, PISA va PIRLS tadqiqotlarida tavsiya etilgan yondashuvlar o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini baholashga yo'naltirilgan bo'lsa, psixolingvistik nazariyalar o'qish jarayonining ichki mexanizmlarini ochib beradi [10, 12]. Shu sababli boshlang'ich ta'lim amaliyotida ushbu ikki yo'nalishni integratsiyalash o'quvchilarning funksional o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodologik asosini tashkil etadi.

Inklyuziv ta'limga doir tadqiqotlarda esa ta'lim sifati, avvalo, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Booth va Ainscow inklyuziv ta'limni barcha o'quvchilar uchun integratsiya va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tizim sifatida tavsiflanadi[4]. Florian esa inklyuziv ta'limning asosiy vazifasi alohida ehtiyojli bolalar uchun alohida metodika yaratish emas, balki barcha o'quvchilarni qamrab oladigan moslashuvchan pedagogik yondashuvni ishlab chiqishdan iboratligini ta'kidlaydi [5]. Mazkur yondashuvlar inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan nazariy-metodologik modellarni konseptual jihatdan asoslash va ularning ilmiy-nazariy mazmunini yoritishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga doir modellarni – o'qish savodxonligini rivojlantirish psixolingvistik nazariyalar, kompetensiyaviy yondashuv va inklyuziv ta'lim tamoyillarining o'zaro integratsiyasi asosida ishlab chiqish ushbu jarayonning muhim jihati hisoblanadi. Bunday yondashuv mavjud ilmiy ishlardan farqli ravishda o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning yagona metodologik tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Mamalakatimiz ta'lim tizimida o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda asosan metodik ta'minotni takomillashtirish va xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik masalalariga e'tibor qaratilgan bo'lib [8, 11], biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyatida inklyuziv ta'lim sharoitida o'qish savodxonligini rivojlantirishning kompleks metodologik modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tahliliy izlanishlarimiz o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonining samaradorligi faqat metodlarni tanlash bilan emas, balki o'qituvchining metodik kompetentligi, ta'lim muhitining moslashuvchanligi, formatif baholash tizimi va oila bilan hamkorlik darajasi bilan ham bevosita bog'liqligini anglatadi. Demak, inklyuziv ta'lim sharoitida o'qish savodxonligini rivojlantirish ko'p komponentli pedagogik tizim sifatida qaralishi maqsadga muvofiq deyish mumkin.

Olingan natijalar taklif etilgan nazariy-metodologik model boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'qitish mazmunini modernizatsiya qilish, differensial ta'limni samarali tashkil etish hamda o'quvchilarning funksional o'qish savodxonligini izchil va samarali rivojlantirish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi.

O'tkazilgan nazariy tahlillar inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim pedagogik yo'na-

lishlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda o‘qish savodxonligi faqat matnni texnik jihatdan o‘qish ko‘nikmasi bilan cheklanmay, balki yozma axborotni tushunish, tahlil qilish, baholash, talqin etish va undan turli hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanishni ta’minlovchi funksional kompetensiya sifatida qaraladi.

Tadqiqot jarayonida PISA va PIRLS xalqaro baholash konsepsiyalari, psixolingvistik o‘qish nazariyalari hamda inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari qiyosiy tahlil qilinib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tizimlashtirildi. Tahlil natijalari mazkur yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qish savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali pedagogik tizimni shakllantirish imkonini berishini ko‘rsatdi.

O‘qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy-metodologik modelini ishlab chiqishning ilmiy ahamiyati uning maqsadli-funksional, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligiga asoslangan yaxlit pedagogik tizim sifatida konseptual jihatdan asoslanganida namoyon bo‘ladi. Mazkur model inklyuziv ta’lim sharoitida differensial yondashuvni izchil amalga oshirish, ta’limning universal dizayni tamoyillaridan foydalanish hamda formatif baholash mexanizmlarini o‘quv jarayoniga samarali integratsiyalash uchun metodik asos yaratadi [16, 17, 18].

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda asoslangan nazariy-metodologik yondashuvlardan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik ta’minotni modernizatsiya qilish, shuningdek, inklyuziv sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, mazkur nazariy modelning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, olingan natijalarni statistik mezonlar asosida baholash hamda o‘quvchilarning turli ta’lim ehtiyojlariga moslashtirilgan metodik texnologiyalarni ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rishimiz mummkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni. – T., 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 – 2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.

4. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). Index for inclusion: Developing learning and participation in schools (3rd ed.). Centre for Studies on Inclusive Education.

5. Florian, L. (2014). What counts as evidence of inclusive education? European Journal of Special Needs Education, 29(3), 286–294.

6. Global education monitoring report 2020: Inclusion and education: All means all. UNESCO Publishing. UNESCO. (2020).

7. Gough, P.B., & Tunmer, W.E. (1986). Decoding, reading, and reading disability. Remedial and Special Education, 7(1), 6–10.

8. Kalbayeva, X.D. Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent – 2024. – 54 b.

9. Mitchell, D. (2014). What really works in special and inclusive education: Using evidence-based teaching strategies (2nd ed.). Routledge.

10. Mullis, I.V.S., & Martin, M.O. (Eds.). (2023). PIRLS 2021 international results in reading. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

11. Nasriddinova N.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent – 2025. – 49 b.

12. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). PISA 2022 assessment and analytical framework. OECD Publishing.

13. Perfetti, C.A., & Stafura, J.Z. (2014). Word knowledge in a theory of reading comprehension. Scientific Studies of Reading, 18(1), 22–37.

14. Scarborough, H.S. (2001). Connecting early language and literacy to later reading (dis)abilities: Evidence, theory, and practice. In S.B.Neuman & D.K.Dickinson (Eds.), Handbook of early literacy research (pp. 97–110). Guilford Press.

15. Toxtiyarova Sh.E. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'limga tayyorlashning pedagogik-korreksion strategiyalarini takomillashtirish. Ped. fan. doktori. diss. (DSc) avtoref. – Toshkent: TDPU. 2024. 72 b.

16. Turg'unboyev S.F. va b. Inklyuziv ta'limni tashkil etish / Menejrlik kursi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma / T.: 2025 y. 124 b.

17. Turg'unboyev S.F. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati. "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali №9(1) 2026. – 135-139 betlar.

18. Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish yo'llari. "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali №8(3) 2026. – 408-411 betlar.